

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>B.Sh.Shermuhammadov, A.U.G'ofurov</b>	
Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining sport turizmiga doir bilimlarini rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik mazmuni .....	9
<b>B.Sh.Shermuhammadov, D.R.Murodova</b>	
Fanlararo integratsiya asosida bo'lajak musiqa ta'llimi o'qituvchilarining badiiy-estetik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik modeli .....	16
<b>N.M.O'ranova</b>	
Xorijiy ta'lilda tyutorlik faoliyatining mohiyati va funksiyalari .....	20
<b>B.X.Baydjanov, M.R.Maxkamov</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy muloqot qilish qobiliyatlarini shakllantirish .....	24
<b>B.A.Umarov</b>	
Raqamli texnologiyalar vositasida pedagoglarning professional kompetentligini rivojlantirish tamoyillari .....	28
<b>I.M.Saidov</b>	
Vatanparvarlik va yuksak ma'naviy tarbiya - uchinchi renessans poydevorining omili .....	33
<b>M.I.Alimjonova</b>	
Ta'larning globallashuvi sharoitida talabalarda madaniyatlararo muloqot kompetentligini rivojlantirishning pedagogik mazmuni.....	37
<b>I.I.Yo'ibarsova</b>	
Talabalarda bioetik madaniyatni rivojlantirishning ijtimoiy-tarixiy an'analari hamda zamonaviy yondashuvlari.....	45
<b>M.I.Alimjonova</b>	
Talabalarni madaniyatlararo muloqot kompetentligini rivojlantirishning pedagogik modeli.....	49
<b>F.A.Ibroximov, B.M.Jo'raqo'ziyev</b>	
Mafkuraviy immunitet va uning zarurati .....	56
<b>Z.J.Pardaeva</b>	
Mustaqillik davri o'zbek romanchiligi: badiiy va ilmiy tafakkur masalalari.....	60
<b>F.A.Ibroximov</b>	
Huquqiy fanlarni o'qitilishidagi uzviylik va uzluksizlikning mavjud holati.....	70
<b>L.D.Tuganova</b>	
Gender va ta'lilda tenglik muammosi .....	75
<b>Sh.X.Tog'aev</b>	
Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish samaradorligini oshirishning ilmiy-uslubiy masalalari .....	78
<b>A.R.Saydullayeva</b>	
Talabalarda gender madaniyatini rivojlantirishning tuzilishi va tarkibiy qismlari .....	83
<b>G.S.Raxmonova</b>	
Nostandart tafakkur tarzini rivojlantirishda mustaqil ishlarning pedagogik imkoniyatlari.....	87
<b>M.R.Usmanov</b>	
O'tish davri yoshidagi ruhiy o'zgarishlarning rivojlanish xususiyatlari.....	93
<b>X.Y.Jo'rayeva, M.T.Turkistonova</b>	
Oliy ta'lim muassasalarida biologiya fanlarini o'qitishning nazariy asoslari .....	97
<b>E.S.Yuldashev</b>	
Bo'lg'usi o'qituvchilarda suggestiv qobiliyatlarni rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslari .....	101
<b>G.B.Karimova</b>	
Jismoniy tarbiya fanning interfaol ta'lim usullari va ularni innovatsion faoliyatini shakllantirish ....	107
<b>F.O.Toshboltayev</b>	
Zamonaviy ta'lilda pedagogik imkoniyatlar va axborot texnologiyalari integratsiyasini ta'minlash .....	111
<b>S.D.Akzamov</b>	
Jismoniy tarbiya fani bo'yicha sinfdan tashqari ishlarni bolalar va o'smirlar organizmiga ta'siri.....	115

**OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BIOLOGIYA FANLARINI O'QITISHNING NAZARIY  
ASOSLARI**

**ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРЕПОДАВАНИЯ БИОЛОГИЧЕСКИХ НАУК В ВУЗЕ**

**THEORETICAL BASIS OF TEACHING BIOLOGICAL SCIENCES IN HIGHER EDUCATION  
INSTITUTIONS**

**Jo'rareva Xushruya Yaxyoxon qizi<sup>1</sup>, Turkistonova Maftuna Tursunaliyevna<sup>2</sup>**

<sup>1</sup>Jo'rareva Xushruya Yaxyoxon qizi

– Fargona davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti o'qituvchisi

<sup>2</sup>Turkistonova Maftuna Tursunaliyevna

– Fargona davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti o'qituvchisi

**Annotatsiya**

*Talabalarning bilim faolligini rag'batlantirish mavzusi professor o'qituvchilarning diqqat e'tibori markazida bo'lib bu yerda asosiy e'tibor biologiyani noan'anaviy usullarda o'qitishga qaratilgan. Ushbu maqolada bu sohada ilmiy izlanishlar olib borgan J.Tolipova va A.T.G'ofurovlarini bir nechta adabiyotlari tahlil qilingan. Bundan tashqari Odam anatomiyasi faniga katta hissa qo'shgan olimlar A.M.Qodirov, A.G.Axmedovlarni darsliklariha ham to'xtalib o'tilgan. Biologiya fan asoslari bilan bog'liq bo'lgan o'quv jarayonlar, prinsiplar va qonuniyatlarini bilish o'qituvchiga makkab biologiya kursi bilan bog'liq o'quv-tarbiyaviy jarayonlarni zamon talablariga mos holda tashkil etish va boshqarish imkonini beradi. Bu esa biologiya o'quv fanlarining mazmuni, uning o'qitish shakllari, metodlari, vositalarini o'zaro bog'liq holda joriy etishning maqsad qilib, biologik o'quv fanlar bo'yicha chuqr atroficha bilim berish, ularning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida kamol topishiga ko'mak beruvchi innovatsion ta'lif texnologiyasidan unumli foydalanishni talab etadi. Biologiya o'qitish metodikasi biologiya o'quv fanlarining mazmuni, uning o'qitish shakllari, metodlari, vositalarini o'zaro bog'liq holda joriy etishning maqsad qilib qo'yadi.*

**Аннотация**

Тема стимулирования познавательной активности студентов находится в центре внимания профессорско-преподавательского состава, где основное внимание уделяется преподаванию биологии нетрадиционными способами. В данной статье Ж. Толиповой и А.Т.Гофурова, были проанализированы некоторые источники. Кроме того, обсуждались учебники ученых А.М. Кадырова, А.Г. Ахмедова,несших большой вклад в науку об анатомии человека. Знание образовательных процессов, принципов и закономерностей, связанных с основами биологии, позволяет учителю организовать и управлять образовательными процессами, связанными со школьным курсом биологии, в соответствии с требованиями времени. В этом состоит цель введения во взаимообусловленном порядке содержания биологических предметов, его форм обучения, методов и средств, обеспечить углубленное знание биологических предметов, а также развивать их как всесторонне развитую личность, требует эффективного использования инновационные образовательные технологии, которые помогают найти. Методика преподавания биологии направлена на взаимозависимое введение содержания предметов биологии, форм, методов и средств ее преподавания.

**Abstract**

The topic of stimulating students' knowledge activity is in the center of attention of professors and teachers, where the main focus is on teaching biology in non-traditional ways. In this article, J. Tolipova and A.T.Gofurova's research of some sources have been analyzed. In addition, the textbooks of scientists A.M. Kadirov, A.G. Akhmedov, who made a great contribution to the science of human anatomy, were also discussed. Knowing the educational processes, principles and laws related to the basics of biology allows the teacher to organize and manage the educational processes related to the school biology course in accordance with the requirements of the time. This is the purpose of introducing the content of biological subjects, its teaching forms, methods, and tools in a mutually dependent manner, to provide in-depth knowledge of biological subjects, and to develop them as a comprehensively developed person. requires effective use of innovative educational technology that helps to find. The biology teaching methodology aims to introduce the content of biology subjects, its teaching forms, methods, and tools in a mutually dependent manner.

**Kalit so'zlar:** Biologiya o'qitish metodikasi, o'qitish shakllari, metodlari, vositalari, pedagogik texnologiya, o'qitish jarayoni, o'quv, ko'nikma, malaka.

**Ключевые слова:** Методика обучения биологии, формы обучения, методы, средства, педагогическая технология, учебный процесс, обучение, науки, квалификация.

**Key words:** Biology teaching methodology, teaching forms, methods, tools, pedagogical technology, teaching process, training, skills, qualifications

**KIRISH**

Bugungi kunda talabalarning bilim faolligini rag'batlantirish mavzusi metodistlarining diqqat e'tibori markazida. Bu yerda asosiy e'tibor biologiyani noan'anaviy usullarda o'qitishga qaratildi (hamkorlikda o'qitish konferensiya darslari modulli ta'lif va h). J.Tolipova va A.T.G'ofurov tomonidan o'qituvchilar uchun bir qancha metodik adabiyotlar yaratildi. Ulardan "Biologiyani o'qitishni metodikasi" (2004), "Biologiya ta'lif texnologiyalari" (2005) kabilarni kiritish mumkin.

Bugungi kunda oliv ta'lrim muassasalari oldida turgan masalalardan biri – talabalarning bilim saviyasini oshirish faqat darsliklarga bog'liq emas, balki biologiya o'qituvchilarining ilmiy-metodik tayyorligi darajasiga ham bog'liqidir. Bu sohada tadqiqot o'tkazgan J.Tolipova biologiya o'qituvchisini zamonaviy modelini yaratdi va uni ommalashtirdi.

Republikamiz metodistlari biologiyaning faqat umumiy o'qitish metodikasi bilan emas, balki xususiy metodikasi bilan ham shug'ullana boshladilar. (J.Tolipova va boshqalar).

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Shu o'rinda Respublikamizda biologiya fanlarini o'qitish metodikasini rivojlantirgan kuchli mutaxasis olimlarimiz J.Tolipova va A.G'ufurovlarni "Biologiya o'qitish metodikasi" nomli o'quv-ulubiy qo'llanmasiga to'xtalib o'tishni joiz deb topdik. Ushbu o'quv-uslubiy qo'llanma ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida biologiyani o'qitishning umumiy masalalari, ikkinchi qismida biologiya darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish yo'llari yoritilgan.

O'quv - uslubiy qo'llanmaning birinchi qismida biologik ta'lim samaradorligini oshirish yo'llariga atroflicha to'xtalib o'tilgan bo'lib, unda quyidagilar yoritilib o'tilgan: Sanoati rivojlangan davlatlar bilan iqtisodi, madaniy-ma'rifiy, diplomatik aloqalarning o'rnatilishi jahon hamjamiyatiga javoban mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar bilan birga ta'lim tizimini ham barcha sohalarda isloq qilishni taqozo etdi. Shu sababli O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunida ta'lim mamlakatimizning ijtimoiy taraqqiyot sohasida ustuvor yo'nalish deb e'lon qilingan. Mazkur hujjatda mamlakatimizning ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari etib, jumladan, quyidagilar qayd etilgan:

—ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi; —ta'lim uzlusizligi va izchilligi;

—ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;

—davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;

—ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondoshuv; — bilimli bo'lish va iste'dodni rag'batlantirish;

—ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish;

O'qitish jarayonining samaradorligini oshirishda quyidagilar e'tiborga olinishi lozim:

— o'qitish jarayonining maqsadiga erishish uchun uning mazmuniga mos holda, vosita, metod va shakllarini tanlash. Ularning tahsil oluvchilarning motivi, ehtiyoji, qiziqishiga uyg'unligi.

— o'qitish jarayonini loyihalash, o'qitish mazmuni va maqsadga erishish vositalarini tanlash, o'quv materialini turli usullar yordamida yetkazish va ongli o'zlashtirishga erishish.

— tahsil oluvchilarning o'quv operatsiyalarini bajarish, o'qituvchi va tahsil oluvchilarning o'quv ishlari (o'quv materialini yuqori darajada o'zlashtirish uchun o'quvchilar faoliyati)ni samarali tashkil etish.

— o'qitish jarayonida teskari aloqani tashkil etish, nazorat va o'quv materialini o'zlashtirish jarayoniga tegishli o'zgartirishlar kiritish va o'z-o'zini nazoratni amalga oshirish.

— o'z-o'zini tahlil qilish, o'qitish natijasini baholash.

Xususan, sohada amalga oshirilayotgan ishlar misolida biologiya fanlarini o'qitishda chet tillardan olingan ko'pgina atamalar mavjud. Mazkur atamalarning tub ma'nosini bilish, biologik bilimlarni yaxshi o'zlashtirishga yaqindan ko'mak beradi.

Binobarin, pedagogika oliv ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlashda "Biologiya o'qitish metodikasi", "Biologiya o'qitish texnologiyalari va loyiha", "Pedagogik nazariyasi" "Pedagogik mahorat" fanlari muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda I.Azimovni ham boshqa olimlar bilan birgalikda nashr ettirgan " Biologiyani o'qitishning umumiy metodikasi" nomli o'quv metodik qo'llanmasi mazkur fanlarni o'qitishda talabalarda kasbiy o'quv bilish faoliyatni rivojlantirish, biologik ta'lim mazmuni va tuzilmasi, zamonaviy yondashuvlar asosida biologik ta'lim mazmunini yangilash imkoniyatlari bilan tanishtiradi. Ushbu biologiya fan asoslari bilan bog'liq bo'lgan o'quv jarayonlar, prinsiplar va qonuniyatlarini bilish o'qituvchiga maktab biologiya kursi bilan bog'liq o'quv-tarbiyaviy jarayonlarni zamon talablariga mos holda tashkil etish va boshqarish imkonini beradi. Bu esa biologiya o'quv fanlarining mazmuni, uning o'qitish shakllari, metodlari, vositalarini o'zaro bog'liq holda joriy etishning maqsad qilib, biologik o'quv fanlar bo'yicha chuqur atroflicha bilim berish, ularning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida kamol topishiga ko'mak beruvchi innovatsion ta'lim texnologiyasidan unumli foydalanishni talab etadi. Biologiya o'qitish metodikasi

## PEDAGOGIKA

biologiya o'quv fanlarining mazmuni, uning o'qitish shakllari, metodlari, vositalarini o'zaro bog'liq holda joriy etishning maqsad qilib qo'yadi.

Biologiya fanlarini o'qitishda o'quvchilarni faqat bilimlar bilan emas, shu bilan bir qatorda ularda o'quv, ko'nikma va malakalarni hosil qilishdan iborat. Biologiya fanlarini o'qitishda laboratoriya mashg'ulotlarni o'tkazish juda muhim sanaladi. Shuni e'tiborga olgan holda A.M.Qodirov "Odam anatomiysi va fiziologiyasidan laboratoriya mashg'ulotlar", A.M.Qodirov, Q.Haydarov "Biologiya o'qitish metodikasidan laboratoriya mashg'ulotlari" nomli qo'llanmalarni nashr etdilar.

Respublikamizda odam anatomiysi fanidan oliy ta'lif talabalari uchun darslik yaratgan olimlardan biri A.G'.Axmedovga to'xtalish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. A.G'.Axmedov o'zining "Odam anatomiysi" deb nomlangan darsligida aynan sohani o'rganishga bag'ishladi. U yerda odam anatomiysi, asosan murdada o'rganiladi, lekin bu borada shifokorlik (vrachlik) ixtisosini egallaydigan kishi tirk odam bilan ham munosabatda bo'lismeni e'tibordan chetda qoldirmasligi lozim. Shuning uchun odam organizmi va a'zolarining tuzilishi, topografiyasi, asosan murdada hamda turli usullar bilan va mavjud texnikadan foydalangan holda tirk odamlarda ham o'rganilishiga va ularni o'rganishni turli usullariga to'xtab o'tgan. Xususan darslikda odamni ichki va tashqi organlarini tizimlarga bo'lib o'rganilgan bo'lib har bir tana a'zosi tizimlarga ajratilagan. Bular quyidagilar tayanch harakat a'zolar tizimi – bu tizimda odam harakatga keltirib turgan barcha suyaklar va muskullarga chuqur to'xtolib o'tilgan. Keyingi bo'lim ichki a'zlor haqidagi ilm deb atalib bunda quyidagilar keltirilgan. Ichki a'zolarga tana bo'shlqlari (ko'krak, qorin va chanoq), shuningdek, bosh va bo'yin sohasida joylashgan a'zolar kiradi. Tanosil yoki jinsiy a'zolari esa ko'payish vazifasini bajaradi. Hazm a'zolari vositasida organizmga qattiq va yumshoq ozuqa moddalar qabul qilinadi, parchalanadi va so'rildi. Ichki a'zolar ovqat hazm qlish, nafas azolari, siyidik-tanosil va yurak-qon tomirlar tizimlariga bo'linadi. Ular organizmning modda almashinuvi faoliyatida, uni ozuqa moddalar bilan ta'minlash hamda modda almashinuvi jarayonida hosil bo'lgan moddalamni chiqarib yuborish vazifasini bajaradi. Nafas a'zolari vositasida gaz almashinuvi ro'y beradi. Ayiruv a'zolari organizmda modda almashinuvida hosil bo'lgan qoldiq moddalarini chiqarishda ishtirok etadi. Darslikda odamni har bir a'zosiga shunchalik chuqur to'xtolib o'tilganki, talabalarda odam anatomiysi fani yuzasidan qiziqish yanada ortadi va ulardagi bilim, ko'nikma va malakalar mustahkamlanadi.

Odam anatomiysi fanidan talabalarga chuqur bilim berish, ularda maruza mashg'ulotlarida olgan bilimlarini yanada mustahkamlash maqsadida yaratilgan yana bir darsliklardan biri E.Qodirovning "Odam anatomiysi" nomli darsligidir. Bu darslikni A.Axmedovning "Odam anatomiysi" nomli darsligidan farqi shundaki, u aynan oliy o'quv yurtlarining biologiya fakultetlari talabalari uchun yaratilganligidadir. Chunki A.Axmedovni shu nomli darsligi tibbiyot institutlarini bakalavriat talabalari uchun yaratilgan. E.Qodirov ham darslikni birinchi bo'lib odam anatomiysi fani va uni o'rganish usullaridan boshlagan bo'lsada A.Axmedovdan farqli o'laroq u fanni o'rganish usullarida bo'lajak biologiya fani o'qituvchilari o'rganishi kerak bo'lgan usullarga bag'ishlangan. Shu o'rinda olim – "O'zbekiston taraqqiyotining o'zi tanlab olgan yo'lidan sobitqadamlik bilan ildam bormoqda. Bu jarayonda davlatimiz oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari zimmasiga yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash, oliy ta'lif muassasalari talabalari uchun o'zbek tilida darslik va o'quv "yangi avlod" ni yaratishdek muhim va ulug'vor vazifalar yuklatilgan. Ma'lumki, ilgari yaratilgan "Odam anatomiysi" darsligi bugunga kelib davr talabiga javob bermay qoldi. Xolbuki keyingi 40 - 50 yil ichida "Odam anatomiysi" fani bo'yicha katta ilmiy-nazariy va amaliy yutuqlar qo'lga kiritildi. Xozirgi vaqtida odam organizmi a'zolari va tizimlarini morfofunksiya tamoyillari asosida tadqiq qilish va o'rganishga katta axamiyat berilmoida. Shu o'rinda "Odam anatomiysi" darsligi oliy o'quv yurtlarining biologiya va biologiya-tuproqshunoslik fakultetlari talabalari uchun mo'ljallab yozilgan bo'lib, kadrlar tayyorlash milliy dasturi va milliy ta'lif modeli talablari asosida yaratilgan davlat tilidagi birinchi darslik hisoblanadi. Bu darslik birinchi marta nashr etilayotganligi sababli unda ayrim kamchilik va nuqsonlar bo'lishi ehtimoldan holi emas. "Odam anatomiysi" tizimida rasmlardan foydalanish eng samarali usullardan hisoblanadi. Rasmlar talabalarga materialni chuqurroq o'zlashtirishlariga va bilimlarini mustahkamlashga ko'maklashadi. Shuning uchun talabalar qo'shimcha darslik, qo'llanma va atlaslarda keltirilgan rasmlardan ham foydalanishlari zarur. Shu tufayli amaliyot darslarida professor N.A.Axmedovning 1998-yilda nashr etilgan "Odam anatomiysi" darsligidan kengroq foydalanish xam maqsadga muvofiqdir" deb yozadi. E.Qodirov ham A.Axmedov singari odamning barcha organlariga chuqur to'xtolib o'tgan bo'lib undan farqli ravishda odam tanasining tuzilishini hujayra va to'qimalarni yoritib berishdan boshlagan.

Oliy ta'lif muassasalarida talabalarga odam anatomiyasi va fiziologiyasi fanini o'qitishda bir qancha ananaviy metodlarga tayaniladi. Og'zaki, amaliy, ko'rgazmali metodlar asosida talabalarda o'quv bilish faoliyati rivojlanadi. Bizga ma'lumki o'qitish jarayonida og'zaki metodlardan muntazam foydalanib kelingan. O'qituvchining yorqin, hissiyotli, dalillarga asoslangan, mantiqiy ketma-ketlikda tuzilgan ko'rgazmali hikoya, suhbat, ma'ruzalari hozir ham o'z qimmatini yo'qotmagan. Og'zaki metodlar qisqa muddatda katta hajmdagi o'quv materialini o'quvchilar ongiga yetkazish, muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish, ularni hal etish yo'llarini ko'rsatish, o'quvchilarning nutqini rivojlantirish imkonini yaratadi. Shuningdek, ko'pchilik metodlar o'qitish jarayonida og'zaki metodaar bilan uyg'unlashtirilgan holda qo'llaniladi. O'qitishning og'zaki bayon metodlari qo'llanilganda o'qituvchining so'zi o'quvchilarning bilim olishlari uchun asosiy manba hisoblanadi, ya'ni o'qituvchi o'quvchilarga so'zlar vositasida bilim beradi, o'quvchilar faoliyatini eshitish, fikr yuritish, berilgan savollarga javob topishga yo'naltiradi. Shuning uchun o'qituvchining so'zi oddiy axborot bo'lmasdan, balki ishonchli, asoslovchi, o'quvchilarning faoliyatini faollashtiruvchi ta'sir kuchiga ega bo'lishi kerak. Og'zaki metodlardan odam anatomiyasi va fiziologiyasi fanini o'qitishda asosan maruzalarda foydalaniladi. Ammo laboratoriya mashg'ulotlarda og'zaki metodlarni o'zidan foydalanish darsni ancha sifatini tushuradi. Shuning uchun og'zaki metodga amaliy va ko'rgazmali metodlarni qo'shib foydalanish maqsadga muvofiq.

Bu borada, avvalo, metodlardan foydalanish talabalarning o'zlashtirgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash, o'quv va mehnat, ko'nikma hamda malakalarini shakllantirish, ijodiy qobiliyatlarini o'stirish, hayotga tayyorlash, kasbga yo'llash imkonini beradi. Ushbu metod o'qitish jarayonida ko'rgazmali, muammoli, og'zaki metodlar bilan uyg'unlashgan holda qo'llaniladi. Talabalar tomonidan bajariladigan amaliy ishlarni bilim manbai bo'lib xizmat qiladi. Buning uchun o'qituvchi amaliy ishlarning maqsadini aniqlashi, maqsadga erishish uchun zarur bo'ladigan kerakli jihozlarni auditoriyada to'liq holda turganligini nazoratga olishi va mashg'ulotni amalga oshirish uchun nazariy bilimlarga ega bo'lishi lozim. Hozirda oliy ta'lif muassasalarida laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish uchun barcha jihozlar yetarli. Shuning uchun odam anatomiyasi va fiziologiyasi fanida o'tkazilishi ko'zda tutilgan barcha tajribalar talabalar tominidan to'liq o'zlashtiriladi. Shu nuqtayi nazardan maruza mashg'ulotlarida olingan nazariy bilimlar ko'nikma va malakalarini hosil qiladi.

Maruza va laboratoriya mashg'ulotlarida ko'rgazmali metodlardan foydalanish talabalarda bilim olishga qiziqishlarini yanada oshiradi. Ko'rgazmali metodlar tarkibiga tabiiy va tirik obyektlar, tasviriy ko'rgazma, ekran vositalari, elektron hisoblash mashinasining ko'rgazmali dasturlari, modellashtirilgan dasturlari, elektron darsliklar, multimedialarni namoyish qilish, ko'rgazmaning did va estetik talablarga javob berishi, dars mazmunini yoritish, ketma-ketlikda o'quvchilar faoliyatini tashkil etish uslublaridan tashkil topadi.

### XULOSA

Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, biologiya fanlarini o'qitish jarayonida og'zaki, amaliy, ko'rgazmali metodlar asosida talabalarda o'quv bilish faoliyati rivojlanadi. Bundan tashqari darslarda axborot kommunikatsion texnologiyalari (AKT) dasturlaridan foydalanish ta'lif sifatini yanada oshirishga yordam beradi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. J.Tolipova, A.T.G'ofurov. "Biologiya o'qitish metodikasi" metodik qo'llanma. Akademik litsey va kasb hunar kollejlari uchun. Toshkent - 2004y- 160-b.
2. Qodirov.E. Odam anatomiyasi. Toshkent "Iqtisodiyot- Moliya"2007-5 291-b
3. Ahmedov A. "Odam anatomiyasi". Toshkent 2003.- 443-b
4. G'ofurov A.T., Tolipova.J, Fayzullayev.S.S, Azimov.I, Ahmadaliyeva.B Biologiyani o'qitishning umumiy metodikasi. O'quv metodik qo'llanma. Toshkent 2005- 51-57 b
5. Jo'rayeva .X. Masofaviy ta'lif jarayonida odam anatomiyasi va fiziologiyasi fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish.Dissertatsiya.-T-2023.-133-b.